



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma’lumot
2025- yil yanvar***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi***

Тел. 71-202-80-44 (45)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar oyi, foizda)




2025- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 81 033 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 324 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 80 709 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar, foizda)



2025- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 26 977,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 109,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 4 678,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 101,4%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 22 299,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,0%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 916,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 114,4 %) tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar oy)

	Jami, mlrd so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	26 977,9	109,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	865,1	107,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1 834,8	107,2
Buxoro	1 411,8	108,5
Jizzax	709,5	110,4
Qashqadaryo	1 712,2	108,2
Navoiy	903,6	111,4
Namangan	1 555,2	111,5
Samarqand	2 583,0	107,2
Surxondaryo	1 832,9	108,5
Sirdaryo	425,2	109,5
Toshkent	2 441,3	111,6
Farg'ona	2 232,6	106,8
Xorazm	1 020,2	107,4
Toshkent sh.	7 450,7	109,8

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan respublikaning Toshkent (111,6 %), Namangan (111,5 %) va Navoiy (111,4 %) viloyati chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 27,6 % bilan 7 450,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Sirdaryo viloyati 1,6 % bilan 425,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Toshkent sh.	7 450,7
Samarqand	2 583,0
Toshkent	2 441,3
Farg'ona	2 232,6
Andijon	1 834,8
Surxondaryo	1 832,9
Qashqadaryo	1 712,2
Namangan	1 555,2
Buxoro	1 411,8
Xorazm	1 020,2
Navoiy	903,6
Qoraqalpog'iston Resp.	865,1
Jizzax	709,5
Sirdaryo	425,2




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 22 299,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 11,0 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,7 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 1,4 % ga o'sdi va 4 678,1 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 17,3 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (96,4 %), Surxondaryo (96,3 %) va Xorazm (96,0 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahri (38,5 %), Toshkent (15,4 %), Samarqand (12,7 %) va Buxoro (11,4 %) viloyatlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi**

429,1

Andijon

535,3

Buxoro

685,2

Jizzax

466,0

Qashqadaryo

475,6

Navoiy

832,8

Namangan

501,9

Samarqand

607,3

Surxondaryo

629,6

Sirdaryo

460,9

Toshkent

792,6

Farg'ona

544,1

Xorazm


506,6

Toshkent sh.

2 421,6

2025- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 725,8 ming so'm (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 107,0 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (2 421,6 ming so'm), Navoiy (832,8 ming so'm) va Toshkent (792,6 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar)**

	Jami, mlrd so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	2 916,0	114,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	121,4	119,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	278,7	112,7
Buxoro	174,7	113,2
Jizzax	234,9	110,8
Qashqadaryo	273,1	111,2
Navoiy	53,0	114,0
Namangan	225,5	117,9
Samarqand	287,8	114,8
Surxondaryo	460,1	114,1
Sirdaryo	46,9	117,5
Toshkent	232,5	112,5
Farg'ona	176,9	117,5
Xorazm	198,8	112,2
Toshkent sh.	151,7	125,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2025- yil yanvar)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd so'm (2025- yil yanvar)**



Respublika bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 916,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 114,4% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 251,2 mlrd so'mni (118,5%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 664,8 mlrd so'mni tashkil etdi (111,5 %).












2025-yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 251,2 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (604,9 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>604,9 mlrd so'm</p>  <p>48,3 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>137,0 mlrd so'm</p>  <p>11,0 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>114,1 mlrd so'm</p>  <p>9,1 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>47,5 mlrd so'm</p>  <p>3,8 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>67,1 mlrd so'm</p>  <p>5,4 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>39,5 mlrd so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>56,7 mlrd so'm</p>  <p>4,5 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>62,1 mlrd so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>15,0 mlrd so'm</p>  <p>1,2 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>42,4 mlrd so'm</p>  <p>3,4 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>22,3 mlrd so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>42,5 mlrd so'm</p>  <p>3,4 %</p>

2025- yilning yanvar oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 664,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 383,5 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 244,4 mlrd. so'mni, otlar – 30,6 mlrd so'mni, parrandalar – 6,2 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>789,0 mlrd so'm</p>  <p>47,4 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>348,9 mlrd so'm</p>  <p>21,0 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>245,5 mlrd so'm</p>  <p>14,7 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>205,5 mlrd so'm</p>  <p>12,3 %</p>	<p>Otlar</p> <p>30,6 mlrd so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>39,0 mlrd so'm</p>  <p>2,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>3,6 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>2,2 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,3 mlrd so'm</p>  <p>0,02 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,1 mlrd so'm</p>  <p>0,01 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 23 427 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 80 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 23 347 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	11 514,8	111,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	707,7	112,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	803,6	111,1
Buxoro	633,8	109,7
Jizzax	355,7	113,5
Qashqadaryo	1 107,8	113,7
Navoiy	336,5	108,8
Namangan	1 164,3	106,1
Samarqand	1 243,1	111,2
Surxondaryo	526,7	111,3
Sirdaryo	228,9	114,3
Toshkent	812,1	112,6
Farg'ona	1 180,7	111,4
Xorazm	659,8	111,1
Toshkent sh.	1 754,2	112,8

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 11 514,8 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 81,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd so‘m	Ulushi, foizda
O‘zbekiston Respublikasi	5 739,0	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	116,0	2,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	314,8	5,5
Buxoro	243,4	4,2
Jizzax	496,2	8,6
Qashqadaryo	181,0	3,2
Navoiy	202,8	3,5
Namangan	226,3	3,9
Samarqand	231,0	4,0
Surxondaryo	103,4	1,8
Sirdaryo	23,8	0,4
Toshkent	326,0	5,7
Farg‘ona	357,7	6,2
Xorazm	277,7	4,8
Toshkent sh.	2 639,0	46,0


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (2 639,0 mlrd so‘m), Jizzax (496,2 mlrd so‘m) va Farg‘ona (357,7 mlrd so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)



2025- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 5 739,0 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,4 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 346,9 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 71,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 3 392,1 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 85,8 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Respublika bo‘yicha 2025- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 30 683,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga o‘sd.

Savdo aylanmasi va ulushi

25,6 %

7 853,7 mlrd so‘m

Yirik korxonalar

74,4 %

22 829,5 mlrd so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 22 829,5 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 74,4 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	30 683,2	110,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	405,7	107,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	849,1	109,7
Buxoro	1 138,8	111,1
Jizzax	436,7	118,7
Qashqadaryo	534,7	107,0
Navoiy	314,1	119,6
Namangan	1 214,8	109,4
Samarqand	1 805,6	116,1
Surxondaryo	670,9	106,9
Sirdaryo	418,9	108,0
Toshkent	3 644,7	114,4
Farg'ona	1 663,3	112,2
Xorazm	587,0	112,2
Toshkent sh.	16 998,9	108,3

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 45 611 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 345 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 45 266 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Navoiy (4,8 m.), Jizzax (4,8 m.), Farg'ona (4,8 m.) va Sirdaryo (199,9 %) viloyatida kuzatildi.